

Azizjon QORABOYEV,
Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston
Milliy universiteti staj.-o`qt.
E-mail:qoraboyevazizjon@gmail.com
Tel; +998977640904

O`zMU, dotsenti U.T.Egamberdiyeva taqrizi asosida

RESPUBLIKA IQTISODIYOTINI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI AHAMYATI

Anotatsiya

Respublikamiz iqtisodiyotining muhim tarmog`i bo`lgan kichik biznesa va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish xususiyatlarini o`rganish va hududiy jihatlariga baho berish. Mavjud bo`lgan hududiy muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf qilish yo`llarini nazariy ishlab chiqish.

Kalit so`zlar: global, demografik jarayon, hududiy joylashuv, eksport, import, subyekt, aksiyodorlik, tijorat.

ЗНАЧЕНИЕ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ

Аннотация

Изучить особенности развития малого бизнеса и частного предпринимательства, являющегося важной отраслью экономики нашей республики, и оценить его территориальные аспекты. Анализ существующих территориальных проблем и теоретическая разработка путей их устранения.

Ключевые слова: глобальный, демографический процесс, территориальное расположение, экспорт, импорт, субъект, пакет акций, коммерция.

THE IMPORTANCE OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF THE REPUBLIC.

Annotation

To study the features of development of small business and private entrepreneurship, which is an important branch of the economy of our republic, and to assess its territorial aspects. Analysis of existing territorial problems and theoretical development of ways to eliminate them.

Key words: global, demographic process, territorial location, export, import, subject, shareholding, commerce.

Kirish. Jahonda global o`zgarish va keskin rivojlanish bo`layotgan bir vaqtida Respublikaning barcha sohalar jadallik bilan o`zgarib bormoqda. Bunday o`zgarishlar yurtimizni barcha hududlarida o`ziga xos ravishda shakllanmoqda. Jumladan barcha sohalar, yo`nalishlarda hududiy va ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etilgan. So`nggi yillarda mavjud barcha yo`nalishlarda keng qamrovli va keng ko`lamli strategik ishlar olib borilmoqda. Bunday yo`nalishlar hozirgi kunda iqtisodiyotimizni rivojlanishiga, aholi turmush tarzini yaxshilash va aholining ish bilan bandligini yildan-yilga oshirib borishiga katta ta`sirini ko`rsatmoqda. Hududiy ko`lamda samarali ishlarni olib borishda iqtisodiyotimizni yangi yo`nalishlardan biri bo`lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ham o`ziga hos ravishda shakllanib kelmoqda.

Jahon banki ma`lumotiga ko`ra 2023-yil holatiga qaraganda O`zbekistonda iqtisodiy o`sish 4,9 foizni tashkil etadi. Bu esa yaxshi natijadir. Qo`shti davlatlarda esa bu ko`rsatkich Qozog`istonda - 3,5% ga, Qirg`izistonda - 3,5% ga va Tojikistonda - 5% ga tengdir. Ma`lumotlarga ko`ra, 2022-yilda O`zbekiston yalpi ichki mahsulotning o`sish darajasi 5,7% ga yetgan. Bu jarayonlar esa rivojlanayotganligini isbotidir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni YIMdagi ulushi 2022-yilda 51,8 foizni tashkil qilgan. Bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni respublikamiz iqtisodiyotida qanchalar ahamiyatliligini bildiradi.

Respublikamizda hududiy jihatdan o`ziga hos ravishda shakllanganligi, relyefining xilma-xilligi tufayli hududiy ishlab chiqarish va sanoat korxonalarini joylashtirishga ta`sir qiladi. Alovida olingan hududda (aholi punkti, viloyat, tumani yoki iqtisodiy rayon bo`lishi mumkin) ishlab chiqarish korxona va tarmoqlari oddiy, birga joylashgan yoki ular o`zar o aloqadorlikda rivojlanib bormoqda. Huddi shu ikkinchi ma`noda hududiy ishlab chiqarish majmualari ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning eng samarali shakli hisoblanib kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari birmuncha qulayliklarga egaligi bilan ajralib turadi. Chunki, korxonalarini alohida-alohida, taroq joylashtirgandan ko`ra ularni bir-biriga yaqin qurish katta samara beradi. Chunonchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni joylashtirishda katta mablag` va ko`p ishchi kuchi talab qilinmaganligi sababli foydali koefisienti yuqori bo`ladi. Bunda har bir korxona uchun emas, balki ularning barchasiga yagona infrastruktura tizimi - yo`l, yer osti va yer ushti qurilmalari, suv, elektr energiya va boshqa shaxobchalar quriladi, natijada mablag` tejaladi. Ana shunday masofa-transport harajatlarini kamaytirish hamda korxonalarining o`zar faoliyat ko`rsatishi tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy-geografik samaradorlik ortadi.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyotning tegishli tarmog`i ijodiy qobiliyatlarni amalga oshirish uchun sezilarli imkoniyatlarni taqdim etadi. Kichik korxonalar tashkiliy biznesning eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi. P. Druher ushbu sektorha ishora qilib, shunday deydi: "Kichik biznes iqtisodiy o`sishning asosiy katalizatoridir". Bundan ko`rinib turibdagi kichik biznes va xususiy subyektlarni rivojlanishini maqsadiga muvofiqlirdi.


Metodlar. Mazkur kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarni ilmiy jihatdan o`rganishda satistik tahlil, ekstrapolyatsiya, taqqoslash, matematik va tizim tarkib usulidan foydalanildi.

Natijalar va muhokamalar. Bizga malumki hududiy ishlab chiqarish majmualari ma`lum bir joyda ishlab chiqarish korxona tarmoqlarini yagona infrastruktura hamda aholi joylashuvini va tizimlari asosida barpo etish va ularni o`zar o`yug`unlashtirilgan holda rivojlanishini anglatadi. Shu ma`noda ular, shubhasiz, iqtisodiy geografiyaning hududiy joylashtirish omillarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishida birmuncha qulay jihatlarni ko`rishimiz mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini faqat iqtisodiyotdagina emas, balki noishlab chiqarishda, jumladan aholiga xizmat ko`rsatish sohalarini hududiy tashkil etishda ham birmuncha qulay jihatlarnini etirof qilsak bo`ladi. Masalan kichik shaharlar yoki avtomobil yo`llari bo`yida serviz hizmatlarini joylashtirish o`zini oqlaganligini M 34 Toshkent, Dushanbe

va A 373 Toshkent, O'sh avtomagistral yo'lida joylashgan servis hizmat ko'rsatish shoxobchalaridan ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari tibbiyot, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo majmualari (komplekslari) shular jumlasidandir.

Bugungi kunda iqtisodiyotni barcha turlarida keng islohotlar olib borilmoqda. Ulardan eng asosiy turlaridan bo'lgan sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, xizmat ko'rsatish sohalari, lagistika xizmati va boshqa soxalarda yillar davomida o'zgarishlar bo'imodda. Chunonchi so'ngi yillarda pandemiyaning global jarayonga aylanishi natijasida dunyo mamlakatlari va albatta O'zbekiston iqtisodiyoti ham inqiroziy holatga tusha boshladi. Bunda jamiatning yirik korxonalar va ishlab chiqarish sohalaridan sog'liqni saqlash, savdo-sotiq, ishlab chiqarish kabi ijtimoiy-iqtisodiy sohalariiga ko'rinarli darajada zarar yetdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlida esa bunday natijalar nisbatan yaxshi ekanligi bilan harakterlanmoqda.



1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi umumiylajmiy hajmiga nisbatan % da.

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasini ma'lumotlari muallif tomonidan qayta ishlangan.

1-rasmida keltirilgan diagrammada ko'rishimiz mumkinki barcha sohalar va yo'nalishlar yillar mobaynida turli ko'rsatkichlar bilan turlicha shakllanib kelgan. Ammo barcha yo'nalishlar o'ziga xos shaklda shakllanib kelmoqda. Bunga misol qilib aytganda 2000-yilda yalpi ichki mahsulotni umumiylajmiy hajmini 31,0 foizini tashkil qilgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2005-yilda 38,2 foiz, 2010-yil 60,8 foiz, 2015-yil 64,6 foizga oshgan. Eng yuqori ko'rsatkich esa 2016-yil 66,8 foizni tashkil qilgan. Keyingi yillarda ham kichik biznes va tadbirkorlikni hajmi yildan yilga ko'payib borgan. Ammo boshqa sohalarni ulushi ham ortib umumiylajmiy yalpi ichki mahsulotdagi ulushi qisqarishiga sabab bo'lgan. 2016-yilga nisbatan 2022-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 15 foizga qisqargan. 2022-yilda bu ko'rsatkich 51,8 foizni tashkil etgan holda yalpi ichki mahsulotda mayjud bo'lgan ulushini kamayishi kuzatildi.

Mavjud statistika ma'lumotlarni tahlil qilsak kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini sanoat sohasidagi umumiylajmiy ulushi yillar davomida turlicha ko'rsatkichlar bilan ajralib turadi. Bunda 2000-yil yalpi ichki mahsulotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sanoatdagagi umumiylajmiy hajmini 12,9 foizni tashkil etgan holda, bu ko'rsatkich 2005-yilda 2,9 foizga pasayishi kuzatilib uning ulushi 10,0 foizni tashkil qilgan. Keyingi yillarda davlat tamonida ko'plab qarorlar va qonunlar amalga oshirildi. Jumladan Aksiyadorlik-tijorat Tadbirkorbankning kredit liniyalari hisobidan tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga dastlabki (bosholang'ich) sarmoyani shakllantirishga kredit berish hamda lizing kompaniyalari tomonidan lizingni amalga oshirish tartibi to'g'risida nizomni o'z kuchini yo'qtogan deb hisoblash haqida (O'zR MBB, O'zR MV va O'zR DMBDK 31.12.2005 y. Qarori), Davlat statistika qo'mitasining 29.10.2007 y. 6-son "1-(kichik biznes) shakli bo'yicha mikrofirma va kichik korxona hisobotini tuzish tartibi to'g'risida yo'riganmani tasdiqlash haqida"gi buyruqni o'z kuchini yo'qtogan deb topish to'g'risida"gi Qarori (AV tomonidan 06.11.2007 y. 1119-1-son bilan ro'yxatga olingan) va boshqa qonunlar va qarorlar qabul qilindi. Bunday ishlarning oqibatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sanoatdagagi ulushi 2005-yilga nisbatan 2010-yil ko'rsatkichlari 2,6 barobar ya'ni 26,6 foizni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkichlar yillar davomida o'zgarib kelgan. Eng yuqori ko'rsatkich esa 2016-yilga to'g'ri kelgan holda 45,3 foizga yetgani bilan xarakterlanadi. Keyingi yillarda esa sanoat mahsulotlarini umumiylajmiy hajmi oshishi va yirik korxonalarining ulushi ortib borishi natijasida sanoat mahsulotlariga nisbatan umumiylajmiy hajmi keskin pasayish kuzatilgan. Bu ko'rsatkich 2022-yilga kelib 2015-yilga nisbatan 17,4 foizga kamaygani bilan xarakterlangan holatda 27,9 foizni tashkil qilgan. Ammo kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sanoat mahsulotlarini hajmi yildan yilga oshib bormoqda.


Iqtisodiyotni rivojlanishida va davlatni shakllanishida asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan aholi bandligining ham ulushi sezilarli darajada rivojlanib keldi. Bu ko'rsatkich 2000-yilda umumiylajmiy aholi bandligiga nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorda band aholi ulushi 49,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2005-yilda 50,9 foizga o'sishini ko'rishimiz mumkin. Eng yuqori ko'rsatkich esa 2016-yil 78,2 foizni tashkil qilgan. Keyingi yillarda esa boshqa yo'nalishlarni rivojlanishi natijasida aholi bandligida kichik biznes va xususiy tadbirkorda band aholining ulushi sezilarli darajada foiz xisobida kamaydi. Lekin aholi soni esa yildan yilga ortib borgani qayd etilgan. 2022-yilda bu ko'rsatkich 73,9 foizni tashkil qilgan holatda Respublikamizda aholini bandligini taminlovchi sohalar bo'yicha lokomotiv yo'nalish bo'lib kelmoqda. Dunyo bo'yicha global muammollardan biri bu aholi bandligi bo'lsa. Bunday muammoni hal etish va demografik jarayonlarni izchil islohat olib borishda ustuvor yo'nalish bo'lib kelmoqda. Shu sababdan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishida aholi bandligi ta'sir ko'lami katta ahamiyatga ega bo'lgan aholi qatlamadir.

Iqtisodiy ko'rsatkichlarning eng asosiy jarayoni bu eksport va import hisoblanadi. Davlatni qanchalik rivolanganlik darajasini ko'rsatib beruvchi ko'rsatkichdir. Respublikamizda eksportni umumiylajmiy ko'rsatkichlarida kichik biznes va tadbirkorlikni ulushi yillar davomida ortib kelgani bilan xarakterlanadi. Bunday jarayonlar 2000-yilda 10,2 foizga to'g'ri kelgan bo'lsa bu ko'rastkich 2005-yilda 6 foizga tushgan. Keyingi yillarda samarali ishlar olib borilgani tufayli 2011-yilda bu ko'rsatkich 2005-yilga nisbatan 12,8 foizga ko'payishi bilan 18,8 foizga yetgan. 2015-yilda bu ko'rsatkich 27 foizni tashkil qilib, 2022-yilda esa 29,6 foizga ko'paygan. 2000-yilga nisbatan, 2022-yilga o'sish surʼati 19,4 foizni tashkil qilgan.

Iqtisodiy ko'rsatkichlarda qaysi tovarning importdagi ulushi yuqori bo'lsa shu tovarga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Hozirgi kunda Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni importdagi ulushi yuqoridir. Importni umumiylajmiy ko'rsatkichlarida kichik biznes va tadbirkorlikni ulushi 2000-yilda 22,8 foizni tashkil qilsa, bu ko'rsatkich 2009-yilda

19,7 foizga ko'tarilib 42,5 foizni tashkil qilgan. Yillar davomida aholi soni ko'payishi va mahsulotga bo'lgan talabni oshishi natijasida importni ham ulushi ortib borgan. Eng yuqori ko'rsatkich 2019-yilda 61,6 foizga oshgan bo'lib, 2000-yilga nisbatan 38,8 foizga ko'tarilgani bilan xarakterlanadi. 2022-yilda esa bu ko'rsatkich 49,4 foizga tushgan. Yuqorida kamaygan ko'rsatkich esa o'zimizda bunday tovarlarni yildan yilga oshishi va mahsulotlar hajmini ko'payayotganidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda mavjud vaziyat kichik biznes va xususiy tadbirkorligini rivojlanshiga barcha shart va sharoitlar yildan yilga yaxshilanib bormoqda. Bunday jarayon esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini ulushini o'sishimi taminlab bermoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga ko'p imkoniyatlari va sharoitlar yaratilgan. Ushbu jarayonda barcha hududlarni kompleks o'r ganiganlik holatiga ko'ra birmuncha jihatlarda muammolar mavjud. Bunday jihatlardan mavjud tabiiy resurslar, mavjud xomashyo va mehnat resursslari bilan taminlanganlik darajasidadir. Bunday omillar natijasida yildan yilga bunday subyektlarning soni ortib bormoqda. Bunga misol qilib yillar davomida Respublikamizda tashkil etilayotgan kichik biznes va xususiy subyektlarni ko'rib chiqsak;



2-rasm Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz).

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari muallif tomonidan qayta ishlangan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilganimizda eng yuqori ko'rsatkich 2021-yilga to'g'ri kelgan holatda 98886 tani tashkil qilgan. Keyingi o'rnlarda esa 2020-yil 93214 ta, 2019-yil esa 92874 tani tashkil qilgan. Eng past ko'rsatkich esa 2003-yilda 20164 tani tashkil qilgan. Yillarda davomida o'rtacha ko'rsatkich esa 68949,1 tani tashkil qilgan. Keskin ravishda o'sish surati 2018-yilga nisbatan 2019-yilda 43952 taga ko'payganini ko'payganini ko'rishimiz mumkun. Bu jarayon esa yillar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qanchalik darajada rivojlanayotganligi o'z tasnifini topadi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari keng ko'lamba rivojlanmoqda. Mavjud bo'lgan iqtisodiy vaziyatni tabiiy shart-sharoitga bog'liq holda tahlil qilsak, barcha turdag'i ishlabi chiqarish obyektlari va hizmat ko'rsatish soxalarini rivojlanishiga qulay tarmoqdir. Chunonchi hozirgi kunda kiritilayotgan investitsiyani ko'p qismi shu tarmoqqa ekanligi so'zimni isbotidir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni shakillani yirik kompaniyalar bilan solishtirganda, kichik korxonalarining afzalliliklari ko'proq moslashuvchanlik, biznes muhiti va bozordagi o'zgarishlarga samaraliroq javob berishdir. Shuning uchun bu sohaga kiritilayotgan investitsiyalar yuqori daromad keltiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga tasir qiluvchi omillar;

- Qulay geografik o'rin.
- Tabiiy sharoit va tabiiy resursslari.
- Ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.
- Intensiv xo'jaligdan foydalanish.
- Bozorga mahsulot va xizmatlarni diversifikasiya qilish.
- Aholi bantligini og'ir sanoat emas balki yengil va og'ir sanoat mahsulotlariga o'tish.
- Xizmatlar qatorini bozor talabiga qarab tezda sozlash.
- Tadbirkorlik ta'limi va boshqa omillar ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan omillarni isloh qilgan holda ish olib borish maqsadga muofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017. 488-b.
2. U.T. Egamberdiyeva, Sanoat geografiyasi -Toshkent <>DONISHMAND ZIYOSI>> 2020. -29 b.
3. Tojiyeva Z.N. O'zbekiston Respublikasi demografik jarayonlari va ularning hududiy xususiyatlari. Geografiya fanlari doktori (Dsc) dissertatsiyasi avtoreferati.-T, 2017.
4. Yuldashev N. Farg'ona viloyatida mehnat resursslari shakllanishining ijtimoiy-demografik omillari va hududiy xususiyatlari. Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.-T, 2019.
5. Тожиева З.Н. Nature and science//(Nat Sci) ISSN 1545-0740 (print); ISSN 2375-7167 (online); doi prefix: 10.7537, Monthly Volume 20 - Number 3 (Cumulated No. 180), 2022. Study On The Coupling Relationship Of Urbanization-Social Economy-cological Environment In Hohhot-Baotou-Ordos-Ulanqab Urban Agglomeration, China. 2022. P.44-51
6. <http://www.lex.uz>
7. <http://www.demoscope.ru/>
8. www.stat.uz/